

HOMILADORLIK DAVRIDA GIPERTENZIV BUZILISHLAR

Soatova Nigora Alimjonovna

Toshkent Tibbiyot Akademiyasi Termiz filiali
Akusherlik, ginekalogiya va oilaviy shifokorlikda
ginekalogiyasi kafedrasи assistenti

Chutboyev Bunyod Rustamovich

Toshkent Tibbiyot Akademiyasi Termiz filiali
Farmakalogiya va klinik farmakalogiya kasedrasi assestanti

Odilnorova Mashxura Musliddin qizi

Toshkent Tibbiyot Akademiyasi Termiz filiali
1 Davolash fakulteti 503 “a” guruh talabasi

ANNOTATSIYA

Homiladorlar gipertenziv buzilishlari o‘z asoratlari va uchrash ko‘rsatgichlari bilan akusherlik amaliyotida aktual muammolardan biri bo‘lib qolmoqda. Gipertenziv buzilishlar homiladorlik va tug‘ruqning kechishini og‘irlashtirib onalar o‘limi sababi bo‘yicha 2-3 o‘rinda turadi. Homilaning ona qornida rivojlanishiga ta’sir qilib perinatal kasalliklar va o‘lim foizining oshishiga olib keladi.

Kalit so‘zlar. Bistritskaya, BJSST, mochevina, kreatinin, AQB, bexatar onalik, gipotoniya, gipertenziv buzilish, HROQS, perenital o‘lim.

Homiladorlar gipertenziv buzilishlari o‘z asoratlari va uchrash ko‘rsatgichlari bilan akusherlik amaliyotida aktual muammolardan biri bo‘lib qolmoqda. Gipertenziv buzilishlar homiladorlik va tug‘ruqning kechishini og‘irlashtirib onalar o‘limi sababi bo‘yicha 2-3 o‘rinda turadi. Homilaning ona qornida rivojlanishiga ta’sir qilib perinatal kasalliklar va o‘lim foizining oshishiga olib keladi. Adabiyotlardagi ma’lumotlarga ko‘ra, gipertenziv buzilishlar 8-17% hollarda uchraydi . Bistritskaya T.S. 2000 y. fikrlari bo‘yicha har 7-9 ta homiladordan bittasida gipertenziv buzilishlar uchraydi BJSST 2003 yil. ma’lumotlariga ko‘ra barcha gipertenziv buzilishlar bilan kechuvchi homiladorlikning 2-8% ni homiladorlar gipertenziv buzilishlari tashkil qiladi. Bir qancha Rossiya olimlarining ma’lumotlariga ko‘ra gipertenziv buzilishlar 12-17% homilador ayollarda aniqlanadi. Gipertenziya bosh miya qon aylanishining buzilishi (Geneva, 2008), ko‘z to‘r pardasining ko‘chishi. Gipertenziv buzilishlar va platsentaning kuchishi natijasida kelib chiquvchi massiv qon ketishlarga olib keladi

Maqsad va vazifalarimiz: Gipertenziv buzilishlari bo‘lgan homilador ayollarni retrospektiv va prospektiv tahlil qilish va BJSST taklif qilgan davolash usulining samaradorligini isbotlab berish. Biz o‘z oldimizga gipertenziv buzilishda tug‘ruqning kechishini,gipertenziv buzilishning ona va xomilaga ta’sirini o‘rganib, e’tiborimizni bu patologiyaning intensiv davo uslublarining samaradorligiga qaratdik. Oldimizga qo‘yilgan maqsad va vazifalarimizni yechish uchun 25 ta retrospektiv kasallik tarixini tahlil qildik va 25 ta homiladorlikni prospektiv o‘rgandik. 50 nafar ayoldan 36 (72%) nafarida og‘ir darajali gipertenziv buzilish, 4 (8%) nafarida o‘rtal darajali gipertenziv buzilishlar, 10 (20%) nafarida esa gipertenziv buzilishning yengil darajasi aniqlandi. Prospektiv guruh homiladorlarining umumiy ahvoli BJSST tomonidan ishlab chiqilgan gipertenziv buzilishlar tasnifi bo‘yicha baholandi. Homila ahvoli va uning rivojlanishdan orqada qolish darajasini baholash uchun UTT aparatidan foydalanildi.Tekshirish natijalari quyidagilarni ko‘rsatdi. Barcha bemorlar orasida 20 yoshdan 30 yoshgacha bo‘lgan homiladorlar 55% ni tashkil qildi. Homiladorlarda ko‘proq uchragan ekstragenital kasalliklar: kamqonlik, buyrak kasalliklari, semizlik, yurak qon-tomir kasalliklari, gipertenziv buzilishlar va hokazo. Ba’zi homiladorlarda ekstragenital kasalliklarning 2-3 xil turi aniqlandi. Gipertenziv buzilishlarning toza turlari birinchi bor tug‘uvchi homilador ayollarda 9% uchradi. Kasallik turlarinig qo‘shilishi bilan gipertenziv buzilishlar og‘irroq kechib, davolashlar samara bergenligi kuzatildi. Gipertenziv buzilishning kechishiga ekstragenital kasallikning og‘irlik darajasi va davomiyligi ma’lum darajada ta’sir ko‘rsatadi. Bizning kuzatuvimizdagи kechki gipertenziv buzilishlari bo‘lgan homiladorlarda homiladorlar quishi (24%), kamqonlik (90%), buyrak kasalliklari (20%) aniqlangan. Bu homiladorlarning yarmidan ko‘p qismi ro‘yxatga o‘z vaqtida olinmagan. Bizning tahlilimiz bo‘yicha gipertenziv buzilishi belgilari ichida gipertenziya (100%), shish (64%), proteinuriya (78%) uchrab. shulardan faqat 3 nafar homilador siydigida oqsil 3 g/1 dan ko‘p ekanligi kuzatildi. Homilaning disstres sindromi (17%) homiladorlarda aniqlandi. Bu esa homiladorlikning ko‘proq qishloq sharoitida hatto gipertenziv buzilish kelib chiqish xavfi yuqori bo‘lgan homiladorlarni hal ham ayollar maslahatxonalarida ro‘yxatga kech olinayotganligini ko‘rsatadi. Bizning nazoratimizda bo‘lgan 25 nafar homiladorda gipertenziv buzilishni davolash yuqorida keltirilgan magnezial davo sxemasi bo‘yicha olib borildi. Davolash natijasida 20 nafar (80%) homiladorlarda AQB ni pasayishi kuzatildi. 5 nafar (20%) homiladorda davo samarasiz bo‘ldi. Qiyosiy guruhda gipertenziv buzilishni an’anaviy yo‘l bilan davolaganda 10 (40%) nafar homiladorda davo samarasiz bo‘lgan. Bioximik tekshiruvlarda qon zardobidagi umumiy oqsil miqdori kamayganligi (60,0-70,0 g/1) aniqlandi, bu ko‘rsatgichni homiladorlar siydigini orqali oqsil yuqotilishi bilan bog‘lash mumkin. Mochevina va kreatinin

ko'rsatgichlarida deyarli o'zgarishlar kuzatilmadi. Bizning kuzatuvimizda bo'lgan 44% homiladorda homiladorlik muddatli tug'ruq bilan yakunlandi. Magnezial davo uslubini qo'llash natijasida, muddatdan oldingi tug'ruqlar, hamda induksiyalangan tug'ruqlar soni qiyosiy guruhga qaraganda ikki baravar kamaydi. Tug'ruq umumiy davomiyligining o'rtacha ko'rsatkichi gipertenziv buzilishning yengil va og'ir darajalarida deyarli farq qilmadi. Asosiy guruh homiladorlari orasida normal joylashgan platsentaning vaqtidan oldin ko'chisi 4%, gipertenziv buzilishning yengil darajadan og'ir darajaga o'tishi 14% kuzatildi. Bu holatning kelib chiqishi qon-tomir devorinig murtligi bilan bog'liq. Og'ir darajali gipertenziv buzilishlar orasida tug'ruqni operativ yo'l bilan tugallash magniy sulfat samarasiz bo'lganda 5 (18 %) ni tashkil etdi. Adabiyotlarda gipertenziv buzilishlarning o'zi 1,4-6,2% hollarda kesar-kesish operatsiyasiga ko'rsatma bo'lib hisoblanadi [2]. Asosiy guruhda 10%, retrospektiv guruhda 7% ni ko'rsatdi. Akusherlik qisqichlari asosiy guruhda 4% holda ishlatildi. Gipertenziv buzilishlar og'irlik darajasi qancha o'sib borsa homila va chaqaloq uchun tug'ruq oqibati shuncha kam muvafaqqiyatli buladi. Og'ir darajali gipertenziv buzilishlar xomila va chaqaloq salomatligi uchun juda katta xavf tug'dirishi mumkin. HROQS kursatkichi qiyosiy guruhdagi bemorlarga qaraganda asosiy guruhdagi bemorlardan ikki marotaba kamaygan.

Magnezial davo natijasida, homila disstress sindromi (3%) ga chala tug'ilishlar soni ikki baravar, perinatal o'lim 1,5 baravarga kamaydi. Magniy sulfat o'zining sedativ, gipotenziv, diuretik, spazmolitik, tokolitik, talvasaga qarshi va hokazo ta'sirlarga ega bo'lganligi uchun, akusherlik amaliyotida avval gipertenziv buzilishni davolashda ishlatilgan bir qancha preparatlar, spazmolitiklar (Papaverin, Noshpa, Baralgin), sedativ (relanium, seduksen), gipertenziv (dibazol, eufillin), siydik haydovchi (furosemid, gipotiazid), neyroleptik moddalar ganglioblokatorlar (benzogeksoniy, pentamin), tokolitiklar va boshqalar o'rnila qo'llanilishi tejamkorlik tomonidan ham maqsadga muvofiqdir. Gipertenziv buzilishi bo'lgan homiladorlarni olib borish hamda tug'ruqni hal qilish vaqtini va uslubini belgilashda kasallikning og'irlik darajasiga, homiladorlik, tug'ruq va farzandlar soniga e'tibor qaratish lozim. Xulosalar. 6-son shahar tug'ruq kompleksi ma'lumotiga ko'ra gipertenziv buzilishlar 2002-2003 yilda 12,5%, 2009-2011 yilda 6,6 % homiladorlarda uchraydi. Yengil darajali gipertenziv buzilishlar 41 (82 %), og'ir preeklampsiya 9 (18 %), bemorda kuzatildi. Anemiya 90,6%, buyrak kasalliklari 14,4 %, semizlik 6,2% ni tashkil qildi. Preeklampsiya bo'lgan ayollarda homiladorlik natijasini o'rganish shuni ko'rsatdiki, 30 nafar ayol (60%) saqlangan homiladorlik bilan uyiga javob berildi. Ulardan homiladorlar patologiyasida yotgan o'rtacha o'rin kuni 12-15 kunni tashkil etgan. Ularning hammasi qon bosimi, siydigidagi oqsil miqdori, qon va siydik taxlillari to'la ortga qaytgan holda uyiga javob berilgan. Ayollarning 35 tasida

(70%) muddatli tug‘ruq, 12 tasida (24%) muddatdan oldingi tug‘ruq, 2 tasida (4%) cho‘zilgan homiladorlik va bittasida (2 %) muddatdan o‘tgan tug‘ruq kuzatilgan. Tug‘ruq 21 nafar (84%) ayollarda boshqariluvchi gipotoniya ostida tabiiy tug‘ruq yo‘llari orqali olib borildi. 4 nafar (8%)ayollarda esa tug‘ruq kesar kesish operatsiyasi bilan yakunlandi. “Bexatar onalik” dasturi asosida olib borilgan effektiv perinatal parvarish natijasida tug‘ruqni induksiyalash ikki baravarga, chala tug‘ishlar soni ikki baravarga, perinatal o‘lim 1,5 baravarga kamaydi

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)

1. Abdullaev D.N. Kaltsiy antagonistlari mehnat anomaliyalari, preeklampsi, gipertoniya va gipertonik tipdagи vegetativ-qon tomir distoni holatlarida mehnat faoliyatini kompleks tartibga solishda. Abstrakt diss. dok. asal. Fanlar. Sankt-Peterburg, 1998 yil. 35-bet.
2. Ailamazyan E.K. Akusherlik amaliyotida ekstremal sharoitlarda shoshilinch yordam. // Dots. ROSMEDPOLIS”, 2000, 29-52-betlar.
3. Karimov A.X., Alyavi F.L., Nazhmutdinova D.K. Akusherlik amaliyotida ultratovush diagnostikasi.- Toshkent, 2002. 102 bet.
4. Serov V.II. Amaliy akusherlik. - M., Tibbiyot, - 2002 y.
5. Joriy 3.3. Onalar kasallanishi va o‘limini o‘rganish va oldini olish metodologiyasi // Doyalari. Va jin. 1988.-№2.-S. 54-58.
6. Homiladorlik, tug‘ish, tug‘ruqdan keyingi davrda parvarish qilish, yangi tug‘ilgan chaqaloqlarni parvarish qilish: Klinik amaliyot uchun qo‘llanma. JSST, Jeneva, 2003 yil
7. Rahimov A.U., Melikulov X.M. Akusher gemorragik shocking zamonaviy muammolari. Toshkent. "Istiqlol" - 2005 yil,
8. Jeneva Tibbiyot Ta’limi va Tadqiqotlar Jamg‘armasi ([http:// www. Gfrner. cp. / clVGuidelines / Qbstetrias - gynecology-guidelines. Php](http://www.Gfrner.cp./clVGuidelines / Qbstetrias - gynecology-guidelines.Php)), 2008 yil.
9. Hill L. M., Breckle R „, Gehrking W. Abruptio placentae; noodatiy ultratovushli ko‘rinish - intraamnionik qon pihtisi. // Am. J. Obstet. Ginek., - 2002, - 148-jild, -N 3, -P. 1144-1145 yillar.
10. Gilabert J., Estelles A., Azner J. va boshqalar. Abruptio blyashka va tarqalgan intravaskulyar koagulyatsiya. - Acta Obstet.